

OMON MUXTORNING EPIGRAF QO‘LLASH MAHORATI

Yuldosheva Umida Xaitali qizi

O‘zbekiston Respublikasi

Sirdaryo viloyati Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

(+998994403996)

Annotatsiya

Ushbu maqolada yozuvchi Omon Muxtorning epigraf qo‘llash mahorati yoritib berilgan. Uning epigraflari tasnif qilingan. Epigrafni asar mohiyatini ochib berishdagi ahamiyati Omon Muxtorning “Ko‘zgu oldidagi odam” romani orqali tahlil qilib berilgan.

Kalit so‘zlar. Epigraf, badiiy mahorat, pafos, ramziy obrazlar, badiiy unsurlar.

МАСТЕРСТВО ОМОН МУХТОРА В ИСПОЛЬЗОВАНИИ ЭПИГРАФОВ

Абстрактный

В данной статье освещаются навыки писателя Амона Мухтара в использовании эпиграфов. Его эпиграфы засекречены. Значение эпиграфа в раскрытии сути произведения анализируется на примере романа Амона Мухтара «Человек в зеркале».

Ключевые слова. Эпиграф, художественное мастерство, пafос, символические образы, художественные элементы.

OMON MUKHTOR'S SKILL IN USING EPIGRAPHS

Abstract

In this article, the writer Amon Mukhtar's ability to use epigraphs is highlighted. His epigraphs are classified. The importance of the epigraph in revealing the essence of the work is analyzed through the novel "The Man in the Mirror" by Amon Mukhtar.

Keywords. Epigraph, artistic skills, pathos, symbolic images, artistic elements.



Epigraf – asar mazmunini o‘zida jamlagan, unda ilgari surilgan g‘oya haqida tushuncha beradigan badiiy unsurlardan biridir. Asariga munosib epigraf tanlay bilish ham yozuvchining mahoratini ko‘rsatib beradi. Ko‘pincha, epigraf uchun ko‘pchilikka ma‘lum bo‘lgan maqol, she‘riy parcha, hikmatli so‘z kabilar tanlab olingan. “Ba‘zi yozuvchilar asarni yoki uning qismlarini boshlashdan oldin boshqa asarlardan, hikmatli so‘zlardan, xalq og‘zaki ijodi namunalari qisqa parcha keltiradilar. Bu parcha epigraf deb ataladi. Xuddi asar sarlovhasi kabi epigraflarda ham uning mavzusi va g‘oyaviy yo‘nalishiga ma‘lum darajada ishora qilinadi” [1-97].

Omon Muxtor ham o‘z asarlarida epigrafdan mohirona foydalangan. Ba‘zi romanlari uchun bir nechta epigrafni ketma-ket tanlagan. Ayrim romanlarining har bir bo‘limi uchun alohida-alohida epigraf tanlab olgan. Muallifning epigraf tanlash mahorati orqali biz uni badiiy adabiyot va xalq o‘g‘zaki ijodi namunalari bilimdaoni bo‘lganligini bilib olamiz. Boisi, uning epigraflari orasida g‘azallar, she‘rlar va xalq qo‘shiqlaridan parchalardan bilan birgalikda, hattoki, rivoyatlar va latifalar ham ko‘zga tashlanadi. Omon Muxtorni epigrafning hajmi qiziqdirmagan. Epigraf odatda qisqa, lo‘nda bo‘lishi lozim. Lekin Omon Muxtor epigraflari orasida ikki baddan iborat g‘azal parchalari, to‘liq holda berilgan rivoyatlarni ham uchratishimiz mumkin. Agar muallif epigraflarini guruhlariga ajratsak, quyidagicha tasniflash mumkin:

1. She‘riy parchalar.
2. G‘azllardan parchalar.
3. Xalq qo‘shiqlaridan parchalar.
4. Rivoyatlar.
5. Latifalar.

Omon Muxtor asarlariga epigraflarni shu qadar mohirlik bilan tanlaganki, bir asarga tanlagan bir nechta epigrafi turli janr va turli mavzuda bo‘lsa ham bir-birini inkor etmagan. Har biri asarga singishib, bir butunlik hosil qilib ketavergan. Muallif “Ko‘zgu oldidagi odam” romaniga keltirgan epigraflari ham asar mohiyatini ochib berishga xizmat qilgan. Asarga ikkita epigraf tanlab olingan:

1- “Ming sir bor tuproqda...”

Ushbu parcha ustoz shoir Oybek ijodidan olingan.

2- “Mendan nima istaysan, ko‘zgu,
Senga nima kerak!!”

Eski bir qo‘shiqdan parcha.



Avvalo, asar nomiga to‘xtalib o‘tsak – “Ko‘zgu oldidagi odam”. Muallif asarda ba’zi insonlarning ichki dunyosi va tashqi olami bir-biridan tubdan farq qilishini, tili va dili turlicha bo‘lgan insonlar oramizdan ko‘plab topilishini yoritib bergan. Romanning bosh qahramoni bo‘lgan Valijon bunday odamlar sarasiga kirmaydi. Ammo u hurmat qilgan, mehr qo‘ygan insoni ana shunday ikkiyuzlamchi insonlardan biridir. Asarning voqealari Siroj muallimning asl yuzi ochilguniga qadar davom etadi. Valijon iymonli, insofli deb bigan Siroj muallim asar yakunida Iblisning yo‘liga yurgan, yovuz kimsa bo‘lib chiqdi va u soddalik, samimiylik bilan niqoblangan edi. Badal uchuvchini esa Valijon yomon ko‘rar edi. Uning bilgani Badal uchuvchi yerlarga, ekinlarga dori sepib insonlarni ham zaharlayapti va o‘lguday piyonista odam. Hayotdagi hamma narsa bizga ko‘rinib turgan holicha oddiy emas. Asar voqealarining rivoji muallimning sirli, g‘alati o‘limi bilan boshlandi. Asar boshidan oxiriga qadar jumboq, sirli holatlardan iborat. “Ming sir bor tuproqda”, ming sir bor hayotda. Uning qanchasi bizga ma’lum, qanchasi noma’lum. Valijon Siroj muallim bilan bog‘liq bo‘lgan jumboqni yechish davomida ko‘p muammolarga duch keladi. Uning hayotida birdaniga uchta Siroj muallim paydo bo‘ladi. “Men xayolimga kelgan oddiy bir narsani his etib, mana endi oldingidan battar dahshatga tushdim. Siroj muallim – halok bo‘lgan kishimi, choyxonadagi odammi, bumi? – kim?! Kim, axir?!” [3-209]. Asar hayotiy va xayoliy voqealar uyg‘unligida yozilgan bo‘lib, fantastika yetakchilik qiladi. Unda ramziy obrazlar va detallar mavjud. Ramziy obrazlar – Valijonga g‘ayriixtiyoriy tanish bo‘lib qolgan “orqalari, oyoqlari gavdalariga nisbatan katta, turqi-tarovatlari ko‘kish alangani eslatadigan” to‘rt “egizaklar” [3-227], Siroj muallimning o‘g‘li Maxluq (ismi ham g‘alati), gado, Hanifaning “ikkalasining ham bo‘yni qandaydir qiyshiq, boshi yelkasiga yopishgan” [3-226] opalari.

Asardagi sirlilikni, badiiylikni oshirishga xizmat qilgan yana bir holat Siroj muallimning ayoli va kelining ismi bir xil Sojidaxon ekanligi, birinchi ayolining ismi Maxluqo bo‘lganligi, Valijoning ikkala o‘g‘lining ismi ham Umid ekanligi (boshqa-boshqa ayoldan) – bularning barchasi ramziy ma’noga ega. Bu muallifning mahoratidan darak beradi. Negaki, Omon Muxtor ataylab, aynan shunday ismlar o‘xshashligiga e’tibor qaratgan. Bu kitobxonning ham e’tiborini tortishi aniq. Ismlar orqali ham Omon Muxtor sirli bir kayfiyat uyg‘ota olgan kitobxonda. Ismlarning bunday tanlanishini ikki xil tahlil qilishimiz mumkin. Oddiy holatda qaraydigan bo‘lsak – Valijoning ikkala o‘g‘li ham ikki xonadonda ancha yillar davomida kutilgan farzand edi. Shu sababli ham ularni umid qilib kutilgan farzand deb “Umid” ismini qo‘yishgan. Birinchi ayolining ismi Maxluqo bo‘lganligi bois Siroj muallim



o'g'liga Maxluq deb ism qo'yadi. Ayolining ismi Sojida bo'lganligi uchun Siroj muallim kelinini ham Sojida ismli qizdan tanlaydi. "Sojidaxon, deb chaqirganimda, ikkalang ham yugurib chiqasanlar, qiziq bo'ladi" [3-189]. Bu ham Siroj muallimning xarakterida qandaydir bir tushunib bo'lmas muarakkablik, qitmirlikka bir ishora edi. Endi murakkobroq tahlil qiladigan bo'lsak – Valijoning qonuniy farzandi uning hayotiga yangitdan beg'uborlik, poklik olib olib keldi. U turli muammolar, daxmaza o'ylardan qutulib, yana yaxshi kelajak haqida umid qila boshladi. Sojidaxonga kelsak u erini nihoyatda ko'klarga ko'tarar, uni tengsiz, buyuk inson deb o'ylar, barcha illatlarini ham fazilat deb bilardi. Maxluq ismi kabi inson qiyofasidagi bir mavjudod edi, fikrlashdan holi. U nogiron, ehtimol muallimning gunohlari uchun jazodir. Ammo bundan to'g'ri xulosa chiqarmagan. Chunki asardagi asl maxluq muallimning o'zi edi. Asardagi eng muhim detall – ko'zgudir. Shu sababli ham muallif bir epigrafini aynan ko'zguga bog'lagan.

"Mendan nima istaysan, ko'zgu,

Senga nima kerak!!"

Ko'zguga bevosita aloqador inson – Siroj muallimdir. Epigrafidagi ushbu jumla go'yoki Siroj muallim tomomnidan aytilganga o'xshaydi. U ko'zguga ko'p qarar va sirli o'lim sodir bo'ladigan kechada muallim ko'zguni sindirib tashlagan edi.

"Bilasizmi, dadam yo'lakda turgan ko'zgu oldida ba'zan uymalashib qolardilar,. Shunaqa odatlari bor edi!.. Maktabdagi voqea ro'y bergan kuni kechga tomon yo'lakdan o'tayotib, oyna oldida yana dadamni ko'rdim. Lekin bu qo'ndiqda tekkan kasal ekanligidan, e'tibor qilmay, ichkariga kirdim. Kirdimu kutilmaganda dadam negadir so'kinganlari, ko'zgu chil-chil sinib tushganini eshitdim!" [3-191]. Biz faqat yolg'iz qolganimizdagina asl holatimizda bo'lamiz. Siroj muallimga ham niqonlardan holi bo'lgan asl holati yoqmas edi.

"Siroj muallim, og'zi yuziga nisbatan kattaroq ekanligini aytmaganda, kelishgan kishi! Lekin u oynaga qaraganida, o'z shakli qolib, ba'zan badbshara bir shakl aks etardi! Bunga chidayolmaganidan ko'zguni sindirgan edi" [3-296]. Aynan shu badbshara shakl Iblisning aksi edi. Muallim oddiy odamlar orasida, hammadanda yaxshiroq inson sifatida ko'rinishga urinar edi, ammo u kimlargadir bo'ysunib, qabih ishlarni amalga oshirar edi.

Asarda ko'zgu detal sifatida yana bir o'rinda ishlatilgan. Bunda asarning bosh qahramoni Valijon alahlagan holatda eslaydi: "Men bolalik yillari keksa bir odamning uyida antiqa-botiq oyna ko'rgan edim. Uning ichiga kirib olgandek yaqinlashib qarasang, qarshingda tizilgan o'nlab shakling aks etar edi. O'ng tomonda ham shunday. Chap tomonda ham!



O‘sha holat hozir qaytarilgandek... qarshimdagi erkak-ayollar bitta qolmay, dahshatli tarzda menga o‘xshar edi” [3-282]. Muallif ilgari surgan yetakchi g‘oyalardan biri b – bizning tanamiz bitta, ammo ichimizda minglab menlar yashashi edi. Ba’zida yaxshi, ba’zida yomon. Gohi beg‘araz, gohida xudbin. Har bir inson ijobiy va salbiy xislatlarga ega. Ichki menimizda qay biri g‘olib bo‘lsa, o‘sha bizning xatti-harakatlarimizga ta’sir qiladi. Xarakterimizni ko‘rsatadi. Valijonga ko‘ringan g‘ordagi minglab qiyofadoshlari uning o‘zi, ichki olami edi. Siroj muallimga ham ba’zan ko‘zguda ko‘rinadigan badbashara qiyofa uning ayni asl qiyofasi, ichki razil olami edi. Shu sababdan ham bunga bardosh qilolmay, shu qadar qabih ekanligini tan olishni istamaganidan ko‘zguni sindiradi.

Ushbu romanda ham pafos juda kuchli holatda ko‘zga tashlanadi. “Pafos deganda tasvirlanayotgan xarakterlarni milliy va umuminsoniyb ahamiyatini e’tiborda tutgan holda g‘oyaviy-hissiy idrok etish hamda baholash natijasi o‘laroq yuzga kelgan, asarning butun to‘qimasiga singdirib yuborilgan ruh tushuniladi” [2-265]. Sodda qilib aytganda asardagi kayfiyatning kitobxonga ko‘chishi, qahramoning hislarini kitobxon ham tuyishi, qalbining larzaga kelishi, asar ruhining kitobxonda aks etishidir. Xuddi shunday, Valijonning tuyg‘ulari ham kitobxonga ko‘chib o‘tib, uni sirlilik girdobida qiynaydi. Asar sirli vaziyatlarga boy. Kitobxon o‘qish davomida o‘zini bosh qahramon sifatida his qiladi. Muallif sirli holatlarni shu qadar ishonarli, hayotiy qilib tasvirlaganki, beixtiyor o‘quvchini qurquv hissi qamrab oladi. “Juvonlardan birining bemor yotgan bolasi bormi, ichkaridan ahyon-ahyon ingrashgami, ihrashgami keyin ojizgina kulgangami o‘xshagan g‘alati ovozlari eshitilib turardi” [3-190].

“Birov, – belidan arqon o‘tkazib, mahkam bog‘lab qo‘yilgan holda, to‘shakka yarim qapishib, yarim munkayib o‘tirardi. Ozib-tuzigan, ko‘zlari ichiga botgan, ammo uni baribir tanish mumkin... u – Siroj muallim edi!

...Shu asnoda beixtiyor payqadim... U yosh boladek qandaydir eski o‘yinchoqni o‘ynab, o‘z-o‘zi bilan ovora, ingrabmi-ihrabmi o‘tiribdi!” [3-209]. Yozuvchi asrida sirli holatlar zanjirini bir-biriga bog‘lab, shu qadar murakkab vaziyatni hosil qilganki, koitobxon mavhumlik girdobiga tushub qoladi. Yana bir g‘ayritabiiy holat Xanifaning oilasi bilan bog‘liq: “Siz tushunmayapsiz, – dedi yangam. – Ularning hammasi boshqalarga o‘xshamaydigan, g‘alati... Hovli to‘la varrak. Bittasi ana shu uydagi polosday keladi! Ko‘zlari nuqul tomda, osmonda. Har gapga oftobni, oy-yulduzni qo‘shishadi. Oyilari kasal yotibdi; Xudo xohlasa, deyish o‘rniga hamma narsa ko‘kdan, deydi...” [3-226].



Shuncha murakkab junbuqqa muallif asar oxirida oddiylik bilan oydinlik kiritadi. Romanda Omon Muxtor murakkab vaziyatga sodda yechim beradi. Siroj muallim qiyofasidagi iblis tomonidab barchasi asar qahramoniga so‘zlab beriladi.

“Men hozir beixtiyor: “Xo‘p, Siroj muallim qayerdadir olisda yurgan, Maxluq – o‘g‘li, jasad – qo‘g‘irchoq bo‘lsa, bu – mening qarshimdagi kim?!” – degan xayolga borgan edim” [3-296].

“Men unga orqadan razm solib qaradim va birdan... boyagi yigitlardek uning ham qandaydir ko‘kish alangani eslatayotgani, orqasi va oyoqlari gavdasiga nisbatan kattaroq ekanligini payqadim.

- Iblis! – deb yubordim beixtiyor. – Bu Iblisku, axir!” [3-297].

Mana asar nihoyasi, yechim. Sirlarning oshkor bo‘lishi. Omon Muxtor “To‘rt tomon qibla” romanida ilgari surgan g‘oya epigraflarida ham o‘z aksini topgan. Muallif epigrafni mahorat bilan tanlaganki, bir-biridan mavzu jihatidan tubdan farq qilgan har ikkala epigraf ham asarga to‘la mos kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. T.: Sharq nashriyoti, 2008.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
3. Muxtor O. To‘rt tomon qibla. T.: Sharq, 2000.

